

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 13 martdagi «2018 yil hosili uchun ekilgan kuzgi boshqoli don maydonlarini o`z vaqtida mineral o`g`itlar bilan oziqlantirishni tashkil etish, mahalliy o`g`it jamg`arish, ularni dalaga chiqarish

2018 yil hosili uchun ekilgan kuzgi boshqoli don ekinlarini mineral o`g`itlar bilan oziqlantirishni tashkil etish, mahalliy o`g`it jamg`arish, uni dalaga chiqarish, o`simliklar zararkunanda va kasalliklarga qarshi samarali kurashish tizimini joriy qilish hamda hosildorlikni yanada oshirish maqsadida Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 13 martdagi «2018 yil hosili uchun ekilgan kuzgi boshqoli don maydonlarini o`z vaqtida mineral o`g`itlar bilan oziqlantirishni tashkil etish, mahalliy o`g`it jamg`arish, ularni dalaga chiqarish hamda o`simliklar zararkunanda va kasalliklariga qarshi samarali kurashish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 01-03/1-718-sonli yig`ilish bayoni (6-bandi) topshiriqlari ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi (A.Aminov), Quyi Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (J.Uzaqov), Qoraqalpog`iston fermer, dehqon xo`jaliklari va tomorqa er egalari kengashi (Q.Nurumbetov), «Qoraqalpog` agrokimyohimoya» HAJ (S.Djumanazarov) va tumanlar hokimlari tomonidan **joriy yilning 13 martidan - 13 aprelegacha «Boshqoli don ekinlari parvarishida bir oylik favqulodda holat»** deb e`lon qilish to`g`risidagi takliflari ma`qullansin.

3. Qoraqalpog`iston Respublikasi tumanlarida joriy yilning 13 martidan - 13 aprelegacha «**Boshqoli don ekinlari parvarishida bir oylik favqulodda holat**» deb e`lon qilish munosabati bilan g`alla maydonlarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi **1-ilovaga** muvofiq;

2018 yil hosili uchun ekilgan g`alla maydonlarini suspenziya bilan oziqlantirish tadbirlarini o`tkazish grafigi **2-ilovaga**;

g`alla maydonlarini suspenziya bilan oziqlantirishda talab etiladigan mineral o`g`itlar va mablag`lar hisob-kitobi **2.1, 2.2, 2.3-ilovalarga**;

2018 yil hosili uchun ekilgan boshqoli don ekinlarida belgilangan agrotexnik tadbirlarni o`tkazilishini o`rganish va amaliy yordam berish bo`yicha tashkil etilgan Ishchi guruh tarkibi **3-ilovaga**;

2018 yil hosili uchun ekilgan boshqoli don ekinlarida belgilangan agrotexnik tadbirlarni o`tkazilishini o`rganish va amaliy yordam berish bo`yicha tashkil etilgan Ishchi guruh uchun eslatma **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi (A.Aminov) **bir kun muddatda** boshqoli don parvarishi bo`yicha Qoraqalpog`iston Respublikasi shtabini tashkil etsin va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda boshqoli don parvarishi bo`yicha tuman shtablari faoliyatini yo`lga qo`ysin.

G`alla parvarishi bo`yicha Qoraqalpog`iston Respublikasi va tuman shtablariga:

ishchi guruhlar tomonidan o`rganilgan hududlarning ma`lumotlarini tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko`rish;

mahalliy o`g`it jamg`arish, rivojdan orqada qolgan maydonlarga qo`shimcha ishlov berish, mineral o`g`itlar bilan oziqlantirish ishlarini muvofiqlashtirish;

tahliliy ma`lumotlar asosida boshqoli don parvarishi bo`yicha selektor yig`ilishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

5. Tumanlar hokimlari **bir kun muddatda** ushbu qarordan kelib chiqib, «**Boshqoli don ekinlari parvarishida bir oylik favqulodda holat**» yuzasidan o`z qarorlarini qabul qilsinlar.

Bunda, 4 ta sektor kesimida har bir fermer xo`jaligining boshqoli don ekinlari holati bo`yicha kamchiliklari va ularni bartaraf etish bo`yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanishi nazarda tutilsin.

4 ta sektor rahbarlarining o`z hududidagi fermer xo`jaliklarining boshqoli don ekinlari parvarishiga shaxsan mas`ul ekanliklari belgilab qo`yilsin.

6. Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi (A.Aminov), «Qoraqalpog` agrokimyohimoya» HAJ (S.Djumanazarov), tumanlar hokimlari va sektor rahbarlariga yopiq birja savdolarida sotib olingan karbamid mineral o`g`itining qat`iy ravishda faqat suspenziya tadbirlariga sarflanishi ustidan nazorat o`rnatilsin.

7. Veterinariya qo`mitasi (M.Qaypanov), «Qoraqalpog` agrokimyohimoya» HAJ (S.Djumanazarov), «Taxiatoshdon mahsulotlari» AJ (J.Utemuratov), «Qung` irot un zavodi» AJ (Q.Abdijamilov), «Qoraqalpog` don mahsulotlari» AJ (E.Xudoyarov), «To`rtko`ldon mahsulotlari» MChJ (A.Ro`zmetov), «Chimboydon mahsulotlari» MChJ (J.Bayniyazov) va Davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazi (B.Qutlimuratov), Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo`mitasi (T.Xojanazarov) tumanlar hokimliklari bilan birgalikda joylarda veterinariya bo`limlari boshliqlari boshchiligida yil davomida ishlaydigan Shtablar tashkil etsinlar.

Shtablarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

ikki kun muddatda har gektar g`alla maydoniga 5 tonnadan mahalliy o`g`it jamg`arish va dalaga chiqarish grafik-rejasini fermer xo`jaliklari kesimida ishlab chiqish;

tashkil etilgan tumanlararo otryadlarga tumanlardagi qishloq xo`jaligi texnikalarini mahalliy o`g`it jamg`arish va dalaga chiqarish uchun to`liq jalb qilish;

bir hafta muddatda aholi punktlaridagi kunlik, oylik mahalliy o`g`itlar zaxirasini aniqlash va ularni dalaga chiqarish grafiklarini (mahallalar bo`yicha muddatlari aniq ko`rsatilgan) tasdiqlash va ishchi taqdim etish;

hududlardagi qoramolchilik xo`jaliklari va parrandachilik fermalarini xatlovdan o`tkazib, go`ng zahiralari aniqlash va dalaga chiqarilishini tizimli tashkil etish;

xonadonma-xonadon yurib, fuqarolarga tozalik-gigiena, har xil kasalliklarni oldini olish maqsadida «**Tozalik-tuman boylik, mahalliy o`g`it-mo`l hisildorlik**» shiorlari ostida aholi punktlari va mahallalarda keng jamoatchilik o`rtasida targ`ibot ishlarini olib borish vazifalari yuklatilsin.

8. Tumanlar hokimliklari, «Taxiatosh neft baza» MChJ (e.Abdimuratov), Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi (A.Aminov) bilan birgalikda mahalliy o`g`it jamg`arish, dalaga chiqarish uchun sarf bo`ladigan barcha yoqilg`i-moylash materiallari fermer xo`jaliklari hisobidan (texnologik kartalarda ko`zda tutilgan miqdorlar hisobidan) belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta`minlasin.

9. Tumanlar hokimlari, «Qoraqalpog`agrokimyohimoya» HAJ (S.Djumanazarov), «Agrobank» ATBning Qoraqalpog`iston Respublikasi boshqarmasi (J.Baltabaev)ga boshqoqli don etishtirish uchun qo`shimcha ajratiladigan imtiyozli kredit resurslari hisobidan buyurtmalarni shakllantirib, o`simliklar kasalligi va zararkunandalariga qarshi kurashish tadbirlari uchun talab etiladigan mablag`larini belgilangan tartibda yo`naltirish choralarini ko`rsin.

10. Quyi Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (J.Uzaqov) tumanlar hokimliklari bilan birgalikda **uch kun muddatda**:

irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va tumanlar irrigatsiya bo`limlari tomonidan har bir fermer xo`jaligining sug`orish tarmog`ini suv olish joyini suvni boshqarish vositasi bilan jihozlash, ekin maydoni boshida sharbat uralarini tayyorlash, har 5 gektar maydonga bir nafardan suvchilarni jalb qilish ishlarini;

har bir suv iste`molchilari uyushmalariga suv xo`jaligi tashkilotlaridan mas`ul rahbar-mutaxassislarni biriktirib, fermerlarning talabnomasi asosida g`alla ekinlariga sug`orish uchun o`z vaqtida suv etkazib berishni ta`minlashni;

hududlarga suv xo`jaligi tashkilotlarining ekskavatorlarini biriktirib, o`z mablag`lari hisobidan dizel yonilg`isini bergan fermer xo`jaliklarining sug`orish tarmoqlarini mexanizmida tozalash, sharbat suvi o`ralarini kovlab berishni tashkil qilsin.

11. Tumanlar hokimlari «Qoraqalpog` hududiy elektr tarmoqlari korxonasi» AJ (Z.Kerimzatov) bilan birgalikda:

ikki kun muddatda tumandagi nasos agregatlarini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta`minlashni tashkil qilish uchun vakolatli rahbarni biriktirish tavsiya etilsin;

Quyi Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (J.Uzaqov) bilan kelishilgan jadval asosida nasoslarni ularga bog`langan hududlarda g`alla sug`orish ishlari uchun talab etiladigan elektr energiyasi bilan ta`minlash hamda zarur mablag`lar to`lovini nazoratiga olsin.

12. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari S.J.Xojametov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko`ripping`i`ldi`:

Izlew



- [Ministrlar Ken`esi](#)
- [Statistikaliq ha`m analitikaliq ma`gliwmatlar](#)
- [Ministrlar ha`m vedomstvolar](#)
- [Qala ha`m rayon ha`kimliklari](#)
- [Hu`jjetler](#)
- [Respublika miymanlarina](#)
- [Elektron hu`kimet](#)
- [Interaktiv ma`mleketlik xi`zmetler](#)